The formula $E_{\text{HB}}=-V(r)/2$ was used to calculate the hydrogen bond energy. At critical points $H_{\text{BCPs}}<0$, the hydrogen bond has a covalent nature, while $H_{\text{BCPs}}>0$ has an electrostatic nature. According to the table, all bonds are weak hydrogen bonds and are characteristic of the electrostatic effect. If we look at the bond lengths, all of them have a length of 2.1 Å and more, which confirms the presence of weak mutual H-bonding in all complexes, and such bonds can also be called Van der Waals interactions.

Reduced density gradient (RDG) and non-covalent interaction (NCI) analyses

RDG and NCI analyses are used to characterize weak intermolecular interactions. The NCI index is used to characterize intermolecular interactions and assess the nature of weak interactions. RDG is a fundamental dimensionless quantity consisting of the density and its first derivative, and is expressed by formula (1):

$$RDG(r) = \frac{1}{2(3\pi^2)^{1/3}} \frac{|\nabla\rho(r)|}{\rho(r)^{4/3}} \quad (1)$$

Determining the electron density $\text{sign}(\lambda_2)\rho$ relative to the RDG provides information about the nature of intermolecular interactions and the magnitude of these interactions. In molecular systems, blue indicates mutual attraction, while red indicates repulsion. $\text{sign}(\lambda_2)\rho<0$ indicates repulsion between bonded atoms, while $\text{sign}(\lambda_2)\rho>0$ indicates repulsion between non-bonded atoms.




Figure 5. NCI and RDG analyses for $\text{PhNH}_2+(\text{TCM})_n$ ($n=1-4$) complexes

The RDG scattering plot of the complexes is shown on the right side of Figure 5. According to the figure, red color represents strong repulsive forces (steric or cyclic effect), blue color represents H-bonding, and green color represents the presence of Van der Waals interactions. According to the results, the red marks between the PhNH₂ rings indicate the presence of cyclic effect (Figure 5 a). It can also be seen from the RDG scattering plot on the right side of Figure 5 a) that the scattering mainly occurs in the range of $sign(\lambda_2)\rho$, and the value of -0.01-0.00 represents Van der Waals interactions. According to the left part of Figure 5, all complexes have Van der Waals interactions of the Cl-H...N type between the NH₂ group of PhNH₂ and the atoms in the Cl-H group of TCM, which corresponds to the range of $sign(\lambda_2)\rho$ in the RDG scattering plot of -0.02-0.01. Accordingly, a blue shift of PhNH₂ was observed. In general, Van der Waals interactions play a dominant role in these complexes.

Conclusion. In this work, vibrational bands were studied using vibrational spectroscopy (Raman) to study the interactions of aniline and its compounds with chloroform. In this case, a partial red shift and a mainly blue shift were observed in the vibrational bands in aniline solutions. It was predicted that the cause of such shifts was the formation of mainly Van der Waals bonds between aniline and the solvent. This was confirmed when MEPS, FMO, AIM, NCI and RDG analyses were performed to determine the non-covalent interactions.

REFERENCES

1. Mrazkova, E., & Hobza, P. (2003). J. Phys. Chem. A, 107, 1032-1039.
2. Jumabaev, A., Khudaykulov, B., Holikulov, U., Norkulov, A., Subbiah, J., Al-Dossary, O. M., ... Issaoui, N. (2025). Optical Materials, 159, 116683.
3. Khudaykulov, B., Norkulov, A., Holikulov, U., Absanov, A., Doroshenko, I., Jumabaev, A. (2025). Low Temperature Physics, 51(2), 220-230.
4. Chen, Y., Sun, C., Li, Z., Zhou, M. (2014). Eur. Phys. J. D, 68, 70.
5. Alcolea, M. P., Nunez, J. L., & Gil, M. (2002). Journal of Molecular Structure (Theochem), 593, 101-113.
6. Mrazkova, E., & Hobza, P. (2003). J. Phys. Chem. A, 107, 1032-1039.
7. Jumabaev, A., Khudaykulov, B., Holikulov, U., Norkulov, A., Subbiah, J., Al-Dossary, O. M., ... Issaoui, N. (2025). Optical Materials, 159, 116683.
8. Khudaykulov, B., Norkulov, A., Holikulov, U., Absanov, A., Doroshenko, I., Jumabaev, A. (2025). Low Temperature Physics, 51(2), 220-230.
9. Chen, Y., Sun, C., Li, Z., Zhou, M. (2014). Eur. Phys. J. D, 68, 70.
10. Chen, Y., Sun, C., Li, Z., Zhou, M. (2014). Eur. Phys. J. D, 68, 70.
11. Alcolea, M. P., Nunez, J. L., Gil, M. (2002). Journal of Molecular Structure (Theochem), 593, 101-113.
12. Nobrega, M. M., Marcia, L. A., Temperini, R. B. (2016). J. Phys. Chem. C.
13. Alcolea, M. P., Gill, M., Nunez, J. L., Rastogi, V. K., Lalit, M., Sharma, R. (2005). International Journal of Quantum Chemistry, 103, 394-421.
14. Ilic, M., Koglin, E., Pohlmeier, A., Narres, H. D., & Schwuger, M. J. (2000). Langmuir, 16, 8946-8951.
15. Amareshwar, K. R., Sanjay, K., Anita, R. (2006). Vibrational Spectroscopy, 42, 397-402.
16. Qi, Y., Hu, Y., Min, X., Xing, D., Gu, H. (2011). J. Raman Spectrosc., 42, 1287-1293.



УДК: 538.975

Жасурбек ЖУМАЕВ,
Базовый докторант ТауГТУ
E-mail: jumayevjasurbek9999@gmail.com

На основании рецензии доктора физико-математических наук А. Абдувайитова

ВЛИЯНИЕ МОНОСЛОЙНОЙ АДСОРБЦИИ АТОМОВ CS НА ЭЛЕКТРОННУЮ СТРУКТУРУ, ЭМИССИОННЫЕ И ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА GaP (111)

Аннотация

В работе изучено влияние монослойного осаждения атомов Cs на электронную структуру (плотность состояния электронов, параметры зон и оптические свойства) монокристаллического GaP(111). Исследования проводились методами спектроскопии фотоэлектронов и упруго отраженных электронов. Показано, что работа выхода электронов уменьшается на 1,94 эВ, а квантовый выход электронов увеличивается в 5 и более раз.

Ключевые слова: Поверхность, толщина, работа выхода, монослой, структура, монокристалл, осаждение.

EFFECTS OF MONOLAYER ADSORPTION OF CS ATOMS ON THE ELECTRONIC STRUCTURE, EMISSION AND OPTICAL PROPERTIES OF GaP (111)

Annotation

Using the methods of ultraviolet photoelectron spectroscopy, light absorption spectroscopy and true secondary electrons, the effect of deposition of Cs atoms with a thickness of 1 monolayer on the density of states of electrons in the valence and conduction bands, the parameters of the energy band, and the quantum yield of photoelectrons were studied. It was found that when cesium is deposited on the surface of GaP (111) single crystals with a thickness of 1 monolayer, the value of E_g and the position of the maxima of the density of states of valence electrons remain virtually unchanged, the work function of photoelectrons decreases to 1.94 eV, and the quantum yield of photoelectrons increases by 5 or more times. Key words: Surface, thickness, work function, monolayer, structure, single crystal, deposition.

Key words: Surface, thickness, work function, monolayer, structure, single crystal, deposition.

GAP (111) NING ELEKTRON TUZILISHI, EMISSIYASI VA OPTIK XUSUSIYATLARIGA MONOQATLAMLI CS ATOMLARI ADSORBSIYASINING TA'SIRI

Annotatsiya

Ultrabinafsha fotoelektron spektroskopiyasi, yorug'lik yutilish spektroskopiyasi va haqiqiy ikkilamchi elektronlar spektroskopiyasi usullaridan foydalangan holda, 1 monoqatlam qalinligidagi Cs atomlarining changlatilishining valentlik va o'tkazuvchanlik zonalaridagi elektronlar holat zichligiga, energiya zona parametrlariga va fotoelektronlarning kvant chiqishga ta'siri o'rganildi. Aniqlanishicha, seziy 1 monoqatlamli GaP(111) monokristallari yuzasiga changlatilganda E_g ning qiymati va valent elektronlarining holat zichligi maksimumlarining o'rni amalda o'zgarmaydi, ammo fotoelektronlarning chiqish ishi 1,94 eV gacha kamayadi va fotoelektronlarning kvant chiqishi 5 marta yoki undan ko'proq oshadi.

Kalit so'zlar: Sirt, qalinlik, chiqish ishi, monoqatlam, tuzilish, monokristall, changlatish.

Введение. В последние годы много работ посвящено получению кристаллических тонких пленок полупроводниковых материалов, особенно GaP, и изучению их состава, структуры и свойств [1-6]. Результаты этих исследований представляют большой интерес при разработке новых оптоэлектронных устройств, в частности солнечных элементов, а также связан с его широким использованием при создании [7-13]. При покрытии поверхности материалов различной природы происходит резкое изменение их состава и физико-химических свойств [14-17]. В частности, путем имплантации ионов In в GaP были сформированы нанопленки $Ga_{0.6}In_{0.4}P/GaP$ (111) [15], определены их эмиссионные и оптические параметры, а также параметры энергетических зон. В данной работе впервые изучены влияние монослойной адсорбции атомов Cs на элементный химический состав и электронную структуру GaP (111).

Методика эксперимента. Эксперименты проводились на универсальной СВВ установке УСУ-2. Монокристаллы GaP(111) обезгаживались при вакууме $P = 10^{-7}$ Па, температуре $T = 900$ К примерно 4 часа. Перед напылением Cs на поверхность монокристаллов GaP(111) создавали однородные зародыши бомбардировкой ионами Ag^+ с $E_0 = 1$ кэВ. Нами установлено, что при дозе $D = 5 \cdot 10^{13}$ см⁻² кристалличность поверхности заметно не меняется, образуются зародыши (дефектные центры) с поверхностными диаметрами 1-1,5 нм. Для получения атомов Cs использовали кристаллы соли хлорида цезия. После прогрева CsCl при $T = 1000$ К атомы Cs выделялись из источника и попадали на поверхность GaP(111). Исследования проводились с использованием методов фотоэлектронной спектроскопии с $h\nu = 10,8$ эВ, спектроскопии Оже - электронов. Зависимость коэффициента пропускания света T от $h\nu$ снималась на спектрофотометре UV-1280.

Результаты и их обсуждение. На рис. 1 приведены начальные части оже- спектров чистого GaP и GaP с пленкой Cs толщиной 1 монослой. Здесь за 1 монослой принята толщина Cs при котором фотоэлектронная работа выхода Φ

уменьшается до минимума. В оже спектре чистого GaP обнаруживаются пики Ga с энергиями 54 эВ (M_1M_3V) и 79 эВ (M_3M_5V), а также пик P с энергией 121 эВ ($L_3M_{23}V$). После напыления Cs с $\theta = 1$ мс амплитуда пиков Ga уменьшается и изменяются их положения. Положение пика фосфора при $E=121$ эВ не меняется, однако его интенсивность резко уменьшается, появляется слабый пик Cs при $E=49$ эВ. Опираясь на результаты работы [18] можно показать, что Cs в основном осаждается на атомы Ga и образуются поверхностные квазимолекулы Cs+Ga, при этом атомы Cs отдают свои электроны атомам Ga, следовательно, на поверхности формируются диполи, которые облегчают выход электронов в вакуум.




Рисунок. 1. Начальные части оже-спектров: GaP (111) до (кривая 1) и после адсорбции Cs с $\theta=1$ монослой (2)

На рис.2 приведены фотоэлектронные спектры чистого и покрытого монослоем цезия GaP(111), снятые при $h\nu = 10,8$ эВ. На спектре GaP(111) имеются 3 максимума при $E_{св} \approx 0,8$; 2 и 4,1 эВ. Их наличие объясняется возбуждением электронов из валентной зоны. Вследствие возбуждения поверхностных состояний ПС появляется особенность при 0,3 эВ. Адсорбция Cs с $\theta = 1$ монослой приводит к заметному росту площади под кривой $N(E)$, увеличению квантового выхода фотоэлектронов, интенсивности пиков, некоторому изменению их энергетических положений и увеличению ширины спектра ΔE . Все эти изменения объясняются образованием на поверхности соединения типа Cs+Ga и уменьшением работы выхода фотоэлектронов. В начальной части спектра появляется новая особенность, характерная для 6s состояния Cs.




Рисунок. 2. Фотоэлектронные спектры: 1- GaP (111); 2- GaP (111) с монослойным покрытием Cs.

На рис. 3 приведены спектры прохождения света через образец GaP(111), полученные до и после осаждения Cs с толщиной $\theta=1$ монослой. Видно, что в обоих случаях значения коэффициентов прохождения света K в интервале $h\nu \approx 0,5-1,8$ эВ. не меняются и составляют $\sim 0,78$ для чистого GaP и $0,74$ эВ для GaP с пленкой Cs. В этой области $h\nu$ можно полагать, что коэффициент отражения R составляет $0,22$ и $0,26$, соответственно. Начиная с $h\nu \approx 2-2,1$ эВ K резко уменьшается, т.е. происходит интенсивное поглощение света и при $h\nu \approx 2,3-2,4$ эВ K приближается к нулю. Экстраполяция кривой $K(h\nu)$ к оси $h\nu$ при $h\nu \geq 2,1$ эВ дает значение E_g исследуемых образцов. Видно, что значение E_g для GaP (111) составляет $\sim 2,36$ эВ и после напыления Cs с $\theta=1$ монослой, практически, не изменяется. По зависимости $K(h\nu)$ можно оценить значения K , R и T (коэффициент поглощения) при разных $h\nu$ для исследуемых образцов. По данным рис.2 и 3 оценены зонно-энергетические параметры чистого и покрытого монослоем цезия GaP. В таблице приведены также значение δ_m и Y .




Рисунок 3. Зависимости $K(h\nu)$ для пленки GaP (111) толщиной θ (монослой): 1- $\theta=0$ (чистый GaP (111)); 2- $\theta=1$.

Таблица

Параметры энергетических зон, значения δ_m и Y пленки GaP(111) до и после осаждения Cs с $\theta = 1$ монослой

Исследуемый объект	Φ , эВ	E_g , эВ	χ , эВ	δ_m^*	$Y^{**}(h\nu=10,8 \text{ эВ})$
GaP (111)	5,3	2,36	3,04	1,95	$6 \cdot 10^{-3}$
Cs- GaP(111)	3,36	2,36	1,1 эВ	11	$29 \cdot 10^{-3}$

*-максимальное значение коэффициента вторичной эмиссии.

******-квантовый выход фотоэлектронов.

Из таблицы видно, что при напылении Cs с $\theta=1$ монослой значения фотоэлектронной работы выхода Φ и сродство к электрону χ уменьшаются на $\sim 1,94$ эВ, значение E_g практически не меняется. При этом значения δ_m и γ увеличиваются ~ 5 и более раз.

Заключение. Изучено влияние адсорбции Cs толщиной 1 монослой на параметры энергетических зон и на значения коэффициента вторичной эмиссии δ_m и квантового выхода фотоэлектронов монокристаллического GaP.

Показано, что адсорбция Cs с $\theta=1$ монослой практически не приводит к изменению значения E_g , значения Φ и χ уменьшаются на 1,94 эВ. При этом происходит изменение плотности состояния валентных электронов и резкое увеличение значений δ_m и γ .

ЛИТЕРАТУРА

1. Mudar Ahmed Abdulsattar, Bahjat B. Kadhim and Huda M. Jawad. Electronic, Structural and Vibrational Properties of GaP Diamondoids and Nanocrystals: A Density Functional Theory Study. *Nanomater Nanotechnol*, 2015, 5:15 | doi: 10.5772/60577.
2. Lorenz M R, Pettit G D, Taylor R C (1968) Band Gap of Gallium Phosphide from 0 to 900K and Light Emission from Diodes at High Temperatures. *Phys. Rev.* 171:876.
3. Assali S, Zardo I, Plissard S, Kriegner D, Verheijen M A, Bauer G, Meijerink A, Belabbes A, Bechstedt F, Haverkort J E M, Bakkers E P A M (2013) Direct Band Gap Wurtzite Gallium Phosphide Nanowires. *Nano Lett.* 13:1559.
4. NSM Archive, Physical Properties of Semiconductors, Available: <http://www.ioffe.ru/SVA/NSM/Semicond/>. Accessed 2014 June 1.
5. Fedorchenko I. V., Kushkov A. R., Gaev D. S., et al., Growth method for AlInBV and AlVbVI heterostructures, *J. Cryst. Growth.* 483 (1 February) (2018) 245–250.
6. Spirina A. A., Nastovjak A. G., Usenkov S. V., Shvarts N. L., Lattice Monte Carlo model of Langmuir evaporation of AlInBV semiconductors, *J. Comput. Technol.* 23 (6) (2018) 81–94.
7. Alexander S. Gudovskikh, Ivan A. Morozov, Alexander V. Uvarov, Dmitriy A. Kudryashov, Ekaterina V. Nikitina, and Anton S. Bukatin. Low temperature plasma enhanced deposition of GaP films on Si substrate. *J. Vac. Sci. Technol. A*, Vol. 36, No. 2, Mar/Apr 2018
8. S. M. Sze, *Physics of Semiconductor Devices*, 2nd ed. (Wiley, New York, 1981).
9. H. Wagner, T. Ohrdes, A. Dastgheib-Shirazi, B. Puthen Veetil, D. K€onig, and P. P. Altermatt, *J. Appl. Phys.* 115, 044508 (2014).
10. M. Feifel, T. Rachow, J. Benick, and J. Ohlmann, *IEEE J. Photovoltaics* 6, 384 (2016). M. Sadeghi and S. Wang, *J. Cryst. Growth* 227–228, 279 (2001).
11. M. S. Sobolev, A. A. Lazarenko, E. V. Nikitina, E. V. Pirogov, A. S. Gudovskikh, and A. Yu. Egorov, *Semicond.* 49, 559 (2015).
12. J. F. Geisz, J. M. Olson, D. J. Friedman, K. M. Jones, R. C. Reedy, and M. J. Romero, 31th IEEE PVSC (2005), p. 695.
13. A. S. Gudovskikh, K. S. Zelentsov, A. I. Baranov, D. A. Kudryashov, I. A. Morozov, E. V. Nikitina, and J.-P. Kleider, *Energy Procedia* 102, 56 (2016).
14. B.E. Umirzakov, I.R. Bekpulatov, I.Kh. Turapov, B.D. Igamov. Effect of Deposition of Submonolayer Cs Coatings on the Density of Electronic States and Energy Band Parameters of CoSi₂/Si(111). *J. NANO- ELECTRON. PHYS.* 14, 02026 (2022)
15. G. M. Shirinov, S. B. Donaev, B. Y. Umirzakov, V. V. Loboda. Emission, optical and electrical properties of GaInP/GaP nanofilms. *St. Petersburg State Polytechnical University Journal. Physics and Mathematics.* 2023. Vol. 16. No. 2. DOI: <https://doi.org/10.18721/JPM.16208>.
16. Umirzakov B.E., Pugacheva T.S., Tashatov A.T., Tashmukhamedova D.A. Electronic structure and optical properties of CaF₂ films under low energy Ba⁺ ion-implantation combined with annealing. // *Nuclear instruments & Methods in physics research section b-beam interactions with materials and atoms.* DOI: 10.1016/S0168-583X(99)01151-9 2000, Vol. 166, № 2, Page 572-576.
17. Donaev S. B., Tashatov A. K., Umirzakov B. E. Effect of Ar⁺ Ion Bombardment on the Composition and Structure of the Surface of CoSi₂/Si(111) Nanofilms. // *Journal of surface investigation.* DOI: 10.1134/S1027451015020263. 2015, Vol. 9, № 2, Page 406-409.
18. Кораблев В.В., Кудинов Ю.А., Сысоев С.Н. Проявление зонной структуры твердого тела в спектрах вторичных электронов с угловым разрешением // *Физика твердого тела*, 1986, том 28, выпуск 9, с. 2648-2654.



UDK: 539.23

Davron ISMOILOV,
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: ismoilovd903@gmail.com,
Jamoliddin SHOHIMARDONOV,
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

QDU professori A.Tashatov taqrizi asosida

MNE USULI BILAN *Si* YUZASIDA NANOPLYONKALAR HOSIL QILISH VA ULARNING FIZIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'p qatlamli geterotizimlarni taglikning struktura (morfologiya) sini saqlab qolgan holatda epitaksial o'stirish va nanoplyonkalar olish usuli ko'rib o'tiladi. O'ta yupqa va noyob xususiyatli plyonkalar asosan yuqori vakuum sharoitida olinadi. Shuning uchun ushbu maqolaning asosiy maqsadi yupqa plyonkalarni o'ta yuqori vakuumda olish usullari va qurilmalari bilan tanishish hamda tadqiqotlar o'tkazish orqali *Si* yuzasida nanoplyonkalar hosil qilish.

Kalit so'zlar: MNE, qattiq fazali epitaksiya, kichik energiyali ionlar, implantatsiya, *Si*, *CoSi₂*, *GaAs*, *CaF₂* plyonkalari.

ФОРМИРОВАНИЕ НАНОПЛЕНОК НА ПОВЕРХНОСТИ *Si* МЕТОДОМ МЛЭ И ИЗУЧЕНИЕ ИХ ФИЗИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

Аннотация

В данной статье рассматривается метод эпитаксиального культивирования и получения нанопленок многослойных гетерос в состоянии, сохраняющем структуру (морфологию) основания. Сверхтонкие пленки с уникальными свойствами в основном получают в условиях высокого вакуума. Поэтому основная цель этой статьи-познакомиться с методами и устройствами получения тонких пленок в сверхвысоком вакууме, а также создать нанопленки на поверхности *Si* путем проведения исследований.

Ключевые слова: MNE, твердофазная эпитаксия, малая энергия ионы, имплантация, *Si*, *CoSi₂*, *GaAs*, *CaF* слои.

FORMATION OF NANOFILMS ON THE SURFACE OF SILICON BY THE METHOD OF MBE AND STUDY OF THEIR PHYSICAL PROPERTIES

Annotation

This article examines the method of epitaxial cultivation and nanoplyonka acquisition of multilayer heteroisms in a state that preserves the structure (morphology) of the base. Extremely thin and uniquely characteristic films are mainly obtained under high vacuum conditions. Therefore, the main purpose of this article is to get acquainted with the methods and devices for obtaining thin films in an extremely high vacuum, as well as to form nanoplanes on the surface of *Si* by conducting research.

Key words: MBE, solid phase epitaxy, small energy ions, implantation, *Si*, *Si*, *CoSi₂*, *GaAs*, *CaF₂* layers

Kirish. Mikroelektronikaning asosiy yutuqlari, nanoelektronikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarkibi, tuzilishi va xususiyatlari jihatdan mukammal yupqa va o'ta yupqa ko'p komponentli va ko'p qatlamli plyonkalar tizimlarini hosil qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Plyonkali materiallarning elektronika sohasida ishlatilishida eng asosiy o'rinni epitaksial plyonkalar egallaydi. Bunday plyonkalar katta va o'ta katta integral sxemalar ishlab chiqarishda, umuman eng zamonaviy va eng noyob mikroelektron asboblari ishlab chiqarishda alohida rol o'ynaydi. U kelajak elektronikasi, ya'ni nanoelektronikaning ham asosini tashkil etishi tabiiy.

Kristall panjarasining tuzilishi asosning kristall panjarasi tuzilishi bilan bir xil bo'lgan monokristall plyonkalar epitaksial plyonkalar deyiladi.

MNE da hosil bo'layotgan plyonka berilgan asosning yuzasida o'sadi va bu yuza bilan plyonka atomlari aralashib ketmaydi. MNE da kerakli atomlar asosning yuzasiga kelib o'tiradi va yuzada qatlam-qatlam o'sib boraveradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kremniyning yuzasiga kobalt kremniy (*CoSi₂*) plyonkasini MNE yo'li bilan hosil qilish jarayoni: yuqori vakuum sharoitida yuzasi juda yaxshi tozalangan kremniy monokristalining sirtiga kobalt (*Co*) va kremniy (*Si*) manbalaridan ularning atomlari kelib o'tira boshlaydi. Bunda har bir momentda bitta kobalt atomi kelib o'tirganda, ikkita kremniy atomi tushadi. Asosning harorati shunday tanlanadiki, yuzaga kelib o'tiradigan atomlar *CoSi₂* birikmasini hosil qiladi va ularning plyonkasi epitaksial o'sa boshlaydi[1].

Boshqa usullarga nisbatan, avval qayd qilganimizdek, MNE usuli quyidagi asosiy afzalliklarga ega:

- asos va atom (molekula) lar manbalarini yuqori darajada tozalash va eksperimentni juda yuqori vakuumda o'tkazish hisobiga epitaksiya haroratini juda pastga tushirish mumkin (500 ÷ 600 K);

- har xil turdagi (metall, yarim o'tkazgich, dielektrik) materiallarni bir-birining ustiga qatlam-qatlam kerakli qalinlikda o'tkazib mumkin;

- bunday qatlamlarni (masalan: metall–dielektrik–yarim o'tkazgich, metall–oksid–yarim o'tkazgich, yarim o'tkazgich–dielektrik–yarim o'tkazgich) davriy ravishda bir xil ustma-ust o'tkazib borish mumkin, ya'ni hajmiy strukturalar olish mumkin;

- bunday o'stirishda bitta turdagi qatlam ikkinchi turdagi qatlam bilan keskin chegara hosil qilishi mumkin;

- plyonkalar hosil qilish jarayonida uni legirlash uchun legirlovchi moddaning tarkibini va kontsentratsiyasini o'zgartirish yo'li bilan xususiyati o'zgarib boruvchi tizimlarni hosil qilish mumkin[2].

Yuqorida ko'rsatilgan afzalliklar tufayli MNE plyonkalar mikroelektronikaning rivojlanishida asosiy rolni o'ynagan bo'lsa, nanoelektronikaning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Umuman yuqqa epitaksial plyonkalar alohida o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunday xususiyatlarning paydo bo'lishida asosning ta'siri ham, plyonka o'sish davomida legirlanish darajasi ham, plyonkaga tushgan, undan o'tayotgan va chiqayotgan elektronlar va fotonlarning ta'sirlari ham massiv plyonkalardan ko'ra farq qilishi asosiy rolni o'ynaydi[3].

Tadqiqot metodlogiyasi. Shunday qilib, kristall panjara parametrlari bir xil bo'lgan MNE qatlam va asos chegarasida, nazariy jihatdan atomlarning o'zaro aralashib ketishi ro'y bermaydi[4]. Ammo amaliyotda har qanday ideal sharoitda, masalan, avtoepitaksial (*Si* monokristalli yuzasida *Si* qatlam, *Ge* da *Ge* va h.k.) usuli bilan hosil qilingan plyonkalarda ham asos va plyonka chegarasida atomlarning o'zaro aralashib ketishi ro'y beradi. Ya'ni ular chegarasida yangi qatlam hosil bo'ladi. Bunday qatlam chegaraviy qatlam deb ataladi[5]. O'ta yuqori vakuum ($R \leq 10^{-8} Pa$) sharoitida yuqori darajada silliqlangan va tozalangan asos yuzasida avtoepitaksial qatlam hosil qilinsa, chegaraviy qatlamning kengligi $10 \div 20 \text{ \AA}$ bo'ladi. Shunday sharoitda asosning yuzasida boshqa tarkibli plyonka o'stirilsa va ularning panjara doimiylari o'zaro juda kam farq qilsa ($< 0,7\%$), chegaraviy qatlamning qalinligini $20 \div 50 \text{ \AA}$ gacha kamaytirish mumkin. Agar plyonka va asosning panjara parametrlari katta farq qilsa ($3 \div 4\%$), chegaraviy qatlamning qalinligi $400 \div 500 \text{ \AA}$ gacha borishi mumkin.

Chegaraviy qatlamning kengligi yana plyonka va asosning sirti energiyalariga bog'liq bo'ladi. Ularning sirti energiyalari keskin farq qilishi plyonkaning orolchalib bo'lib o'sishiga va natijada notekis qatlamlar hosil bo'lishiga olib keladi. Natijada chegaraviy qatlamning kengligi ham o'zgaruvchan bo'ladi[6].

Epitaksial plyonkalar hosil qilish qizdirish va keyin sovitish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham hosil qilinayotgan plyonkaning mukammalligi ham chegaraviy qatlamning kengligi va sifati hamda plyonka va asosning kristall panjaralarining kengayish harorat koeffitsientlari kattaliklariga bog'liq bo'ladi. Agar ularning harorat koeffitsientlari sezilarli farq qilsa, qizdirish yoki sovitish jarayonida plyonka va asos orasida qo'shimcha kuchlanish vujudga keladi va u plyonkaning ham, chegaraviy qatlamning ham sifatiga salbiy ta'sir qiladi[7].

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, mukammal plyonkalar va chegaraviy qatlamlar hosil qilish uchun o'ta yuqori vakuum, asosning o'ta yuqori darajada silliqlanishi va tozalanishi, molekulyar va atomar manbalarini yuqori tozalash, o'tkazish rejimlarini juda aniq olib borish bilan bir qatorda quyidagilar ham katta rol o'ynar ekan:

- asos va plyonka panjara parametrlari bir-biriga juda yaqin bo'lishi ($\leq 0,7\%$);
- asos va plyonka sirti solishtirma erkin energiyalarining (SSEE) mumkin qadar keskin farq qilmasligi;
- kristall panjara chiziqli kengayish harorat koeffitsientlari (ChkHK) ning o'zaro yaqin bo'lishi[8].

Hozirgi zamon elektronikasida *Si*, *GaAs*, *CoSi₂*, *CaF₂* lar va ularning birikmalari *YaDYa* va *MDYa* tizimlari hosil qilishda keng qo'llaniladi. Quyidagi 1-jadvalda ularning ayrim kattaliklari keltirilgan.


Si, *GaAs*, *CoSi₂*, *CaF₂* larining fizikaviy va strukturaviy xususiyatlari

1-jadval


Material	Kristall tuzilish	Panjara doimiysi	ChKHK, $\text{\AA}/^\circ\text{C}$	Erish harorati $T, ^\circ\text{C}$	Fizik xususiyatlari	SSEE, erg/sm^2		
						100	110	111
<i>Si</i>	Kubik (olmos)	5,431	$2,5 \cdot 10^{-6}$	1415	yarimo'tkazgich	1710	1690	1360
<i>CaF</i>	Kubik (flyurit)	5,464	$19,1 \cdot 10^{-6}$	1360	dielektrik	—	1082	540
<i>CoSi₂</i>	Kubik (flyurit)	5,365	$15,4 \cdot 10^{-6}$	1320	metall	4130	2960	2380
<i>GaAs</i>	Kubik (aldamchi ruh panjarasi)	5,653			yarimo'tkazgich			

Jadvaldan ko'rinadiki, *CoSi₂–Si–CaF₂* tizimini hosil qilish har tomonlama nisbatan qulayliklarga ega. Chunki ularning panjaralari bir xil tipda va doimiysi katta farq qilmaydi. Ammo ChKHK farq qilingani tufayli chegaraviy qatlam kengroq bo'ladi. Plyonka hosil qilishda yuza tomon qaysi kristallografik tomonga to'g'ri kelishi ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, (100) yo'nalishida *CaF₂* uchun SSEE juda katta. Shuning uchun bunday sirtlarda o'ta mukammal plyonkalar olish deyarli mumkin emas[9].

GaAs ning panjara doimiysi keskin farq qilganligi uchun *Si–GaAs*, *CaF₂–GaAs*, *CoSi₂–GaAs* tizimlarida o'tish qatlamlari juda keng bo'ladi. 1-rasmda har xil "plyonka-asos" tizimlari uchun chegaraviy qatlam qalinliklari keltirilgan. Rasmdan ko'rinadiki, panjara doimiysi katta farq qilsa, chegaraviy qatlam ham juda keng bo'lar ekan[10].



1-rasm. *CaF₂/Si* va *GaAs/Si* chegaralarida atomlar konsentratsiyalarining chuqurlik profili bo'yich o'zgarishi

 CaF_2/Si  $GaAs/Si$

2-rasm. $Si(111)$ yuzasida hosil qilingan $GaAs$ va CaF_2 plyonkalarining elektronogrammalari

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, molekulyar nurli epitaksiya usuli bilan olingan $CoSi_2-Si$ tizimning chegaraviy qatlami kristall tuzilishini o'rganish natijasida chegaraviy qatlam kubik panjaraga ega ekanligi aniqlandi. Co 30 at. % dan 1 at. % gacha kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, panjara doimiylarining mos kelmasligi o'stirilayotgan plyonkaning kristall tuzilishida nuqsonlarni vujudga keltiradi. Bu ayniqsa yupqa plyonkalarda ($\leq 200 \div 300 \text{ \AA}$) yaqqol seziladi. 2-rasmda Si yuzasida o'stirilgan CaF_2 va $GaAs$ plyonkalarining elektronogrammalari (katta energiyali difraktsiya tasvirlari) keltirilgan. Ikkala holda ham plyonka qalinligi $300 \text{ \AA}$. Rasmdan ko'rinadiki, $GaAs/Si$ uchun tasvir CaF_2/Si ga nisbatan ancha chaplangan va ikkilamchi reflekslar mavjud. Buning asosiy sababi $GaAs$ va Si panjara doimiylarining bir-biridan sezilarli farq qilishidir (1-jadvalga qarang)[11].

ADABIYOTLAR

1. Normurodov M.T., Umirzakov B.E., Parmankulov I.P., Elektron texnika materiallari texnologiyasi. Toshkent "Mehnat" nashriyoti. 2010 yil. 362 b.
2. Барьбин А.А. Электроника и микроэлектроника. Физико-технологические основы. Учебное пособие. Физматлит, 2016. 589 с.
3. Галкин Н.Г., Горошко Д.Л., Чусовитин Е.А., Полярный В.О., Гутаковский А.К., Латышев А.В., Khang У. Формирование, кристаллическая структура и свойства кремния со встроенными нанокристаллами дисилицида железа на подложках $Si(100)$ // Физика нанокристаллитами дисилицида железа на подложках $Si(100)$ // Физика и техника полупроводников, - Санкт-Петербург, 2017. –т.41. –вып.9.-С.1085-1092.
4. Нормуродов М.Т, Умирзаков Б.Е, "Электронная структура и физические свойства наноразмерных гетероструктур" Qarshi 2021 yil, "Intellekt", 43 bet.
5. Бугерко Л.Н, Борисова Н.В, Суровая В.Э, Еремеева Г.О, Закономерности фотостимулированных превращений в наноразмерных пленках MoO_3 // Журнал физической химии, 2013. Т.87, №12. –С 2105-2109.
6. В.Миронов. Основы сканирующей зондовой микроскопии. Физика техника. Техносфера. Москва 2009 г.
7. БолтаевХ.Х, Ташмухаммедова Д.А, Умирзаков Б.Е.// Поверхность рентген синхротронейтрон исслед. 2014 №4ю С24.
8. Умирзаков Б.Е, ТашмухаммедоваД.А, Гулямов С.Т, Аллаярова Г.Х, Влияние имплантации ионов Ba^+ на состав и электронные свойства пленок $MoO_3/(111)$ УФЖ.2020.том.90вып.5.С.831-834.
9. Аллаярова Г.Х. Получения и изучение электронной структуры нанопленок MoO_3/Mo . Поверхность.2020 №11.Ст74-78.
10. А.И.Гусев. Наноматериалы, наноструктуры, нанотехнологии –М: Физматгиз, 2017.
11. Гусев О.Б, Излучение кремниевых нанокристаллов //ФТП. -2013. –Т.47,В.2.-С 147-167.



UDK: 537.9 (575.1)

Oblokul KUVANDIKOV,
Samarqand davlat universiteti professori, f.-m.f.d
Zokir SHODIYEV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti
Jushqin AXTAMOV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktranti

SamDAQI professori, f.-m.f.d O'.O'sarov taqrizi asosida

INVESTIGATION OF THE ELECTRONIC AND MAGNETIC PROPERTIES OF THE ALABANDITE MINERAL USING DFT AND DFT+U METHODS

Annotation

In this theoretical study, the electronic structure, charge distribution, magnetic moment, and types of chemical bonding present in the alabandite mineral were investigated using Density Functional Theory (DFT) and the Hubbard-corrected DFT+U method. A comparative analysis of the DFT and DFT+U methods revealed that α -MnS exhibits antiferromagnetic behavior, with the resulting magnetic moment - i.e., spontaneous magnetization - equal to 0 μ_B . The analysis of the Electron Localization Function (ELF) indicated the presence of both covalent and ionic bonds in the sample.

Key words: DFT, DFT+U, Quantum ESPRESSO, ELF map, electronic structure, magnetic properties, chemical bonding, magnetic moment.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ И МАГНИТНЫХ СВОЙСТВ МИНЕРАЛА АЛБАНДИТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ DFT И DFT+U

Аннотация

В данной теоретической работе с использованием методов теории функционала плотности (DFT – Density Functional Theory) и DFT+U (с учетом поправки Хаббарда U) были изучены электронная структура, распределение зарядов, магнитный момент, а также типы химических связей в минерале алабандит. При сравнении методов DFT и DFT+U было установлено, что α -MnS обладает антиферромагнитной природой, а результирующий магнитный момент, то есть спонтанное намагничивание, равен 0 μ_B . Анализ функции локализованных электронов (ELF) показал наличие как ковалентных, так и ионных связей в структуре.

Ключевые слова: DFT, DFT+U, Quantum ESPRESSO, карта ELF, электронная структура, магнитные свойства, химическая связь, магнитный момент.

ALABANDIT MINERALINING ELEKTRON VA MAGNIT XOSSALARINI DFT VA DFT+U USULLARI ORQALI TADQIQ QILISH

Annotatsiya

Ushbu nazariy hisoblash va tadqiqod ishida alabandit mineralining elektron tuzilishi, zaryadlar taqsimoti, magnit momenti va namunada amal qiladigan kimyoviy bog'lanish turlari, zichlik funksional nazariyasi DFT (*Density Functional Theory*) va DFT+U (*Density Functional Theory plus Hubbard U correction*) usullari yordamida o'rganildi. DFT va DFT+U usullarini bir-biriga nisbatan taqqoslash yordamida DOS (*DOS - Density of states*) hisoblanganda α -MnS antiferromagnit tabiatga egaligi ma'lum bo'lib natijaviy magnit momenti ya'ni spontan magnitlanish 0 μ_B ga tengligi aniqlandi. Lokallashgan elektronlar funksiyasi (ELF) tahlili yordamida namunada kovalent va ion bog'lanishlar mavjudligi kuzatildi.

Kalit so'zlar: DFT, DFT+U, Quantum ESPRESSO, ELF map, elektron tuzilish, magnit xossa, kimyoviy bog'lanish, magnit moment.

Kirish. Alabandit minerali tarkibi α -MnS (marganets(II) sulfidi) dan iborat bo'lib, nafaqat tabiiy mineral sifatida, balki uning elektron va magnit xossalari bilan ham ilmiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otadi. $Fe_xMn_{1-x}S$ qattiq eritmalarida gigant magnit qarshilik effektining aniqlanishi [1] natijasida ushbu moddalar asosida olingan marganets monosulfidining fizik xususiyatlarini, jumladan, magnit xossasini tadqiq qilishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda [2]. Marganes(II) sulfidi - MnS ning polimorfizmi tufayli, bu mineral polimorfizmni boshqarish va sintez strategiyalarini ishlab chiqish uchun noyob mineral hisoblanadi [3]. Nanometrik marganes(II) sulfidi juda foydali optik, elektr va magnit xossalarga ega bo'lib, bu xususiyatlar nanometrik o'lcham tartibidagi domenlarda, ya'ni 100 nm dan kichik o'lchamlarda o'zgaradi [4].


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Marganes sulfidi (MnS) p-tipli yarim o'tkazgich bo'lib, uchta polimorf fazalari mavjud va ular α , β , γ dan iborat [5]. Ular α -MnS kubik (rock salt) tuzilishida mavjud bo'lib, barqaror hisoblanadi, β shakli kubik sink blende tuzilishiga ega va metastabil holatda bo'ladi, γ fazasi esa metastabil geksagonal vyurtsit mineralining kristall strukturasi tuzilishiga ega. Ikkala β -MnS va γ -MnS fazalar yuqori harorat yoki yuqori bosim ostida metastabil holatdan α -MnS yoki, NaCl tipidagi yoqlari markazlashgan kubik (FCC) panjaraga ega bo'lgan fazaga o'tishi kuzatilgan [6]. Bunday tipdagi minerallar (MnS) yorug'lik chiqaruvchi va optoelektron qurilmalarda, quyosh batareyalari qoplamalarida oynali buffer to'siq materiallari sifatida, magnitoptik qurilmalarda va litij ionli batareyalarida elektrod sifatida qo'llaniladi [7].

α -MnS NaCl tipidagi yoqlari markazlashgan kubik (FCC) panjaraga ega bo'lib unda strukturaviy ya'ni polimorf fazaviy o'tish ($T_s=162\pm 2K$) kuzatiladi[8]. Namunada yuz beradigan antiferromagnit-paramagnit ikkinchi tur fazaviy o'tish esa $T_N=150 K$ da yuz beradi [9]. Alabandit - MnS mineralining elektron tuzilishi va magnit xossalarini olingan tajribaviy natijalar bilan bir qatorda nazariy hisoblash usullarini ham ishlab chiqish muhimdir. Bunday hisoblash usuliga eng so'nggi hisoblash usullaridan **Density Functional Theory (DFT)** va uning kengaytirilgan versiyasi **Density Functional Theory + Hubbard U (DFT+U)** usullari tanlab olindi. Bu hisoblash usuli 1965 yilda nemis fizigi Walter Kohn va uning hamkasbi Lu Jeu Sham tomonidan kashf etilgan bo'lib, Kohn-Sham equations DFT bir elektronli tizimlarning energiya va elektron strukturasi hisoblashda muhim rol o'ynaydi [10,11]. DFT va DFT+U metodlarini qo'llash orqali α -MnS mineralining elektron strukturasi, zaryadlar taqsimoti va magnit xossalari (magnit momenti) haqida yanada yetarli ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Ushbu tadqiqot ishida alabandit minerali α -MnS ni DFT va DFT+U metodlari orqali elektron strukturasi, zaryadlar taqsimoti va magnit xossalari o'rganilib natijalar qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi va hisoblash parametrlari. Yuqorida bayon qilinganidek alabandit minerali α -MnS faza ega bo'lib eng barqaror kristall strukturani namoyon qiladi. Uning kristall panjara ma'lumotlari (MnS ID:mp-2065 Fm3m) ochiq va ishonchli manba materialsproject.org [12,13] bazasidan olindi va hisoblash amallarini bajarish jarayonida bevosita ushbu ma'lumotlardan foydalanildi. DFT va DFT+U hisoblashlari **Quantum ESPRESSO dasturida amalga oshirildi** [14]. Bu dastur yordamida **alabandit minerali** uchun DFT va DFT+U metodlarini qo'llash jarayonida ikkala holat uchun ham hisoblash parametrlari bir xil tanlandi faqat DFT+U hisoblashda Hubbart parametri $U_{Mn}= 4, 5, 6 eV$, $U_S= 0 eV$ qiymatlar kiritildi. *K-point mesh SCF (Self-Consistent Field)* uchun $8\times 8\times 8$, DOS (Density of States) uchun esa tur zichligi $12\times 12\times 12$ tanlandi. Marganets uchun Mn.pbe-spn-kjpaw_psl.1.0.0.UPF, Oltingugurt uchun esa S.pbe-n-kjpaw_psl.1.0.0.UPF psevdopotensiallari qo'lanildi.

α -MnS ni yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida uning elektron zichlikning fazoda taqsimlanishini aniqlash uchun **ELF (Electron Localization Function)** xaritasi yaratildi. ELF xaritani yaratishda dastlab **Quantum ESPRESSO da self-consistent field (SCF)** hisoblashi bajarildi va yaratilgan *MnS.cube ELF* xaritasi Vesta dasturida [15, 16] simulyatsiya qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. DOS tahlili. 1-rasmda α -MnS ning DFT va DFT+U usullari bo'yicha hisoblangan elektronlarning holat zichliklari (DOS) grafigi keltirilgan. DFT natijalari Fermi energiyasi atrofida (0 eV da) elektronlarning holat zichliklari mavjud ya'ni band gap $E_g=0 eV$ ga teng bo'lib α -MnS ning metallik xossasiga ega ekanligini ko'rsatmoqda.



1-rasm. Alabandit (α -MnS) mineralining elektronlar holat zichliklari (DOS) DFT-(a), DFT+U-(b) ning energiyadan bog'lanish grafigi.

DFT+U natijalari (rasm-1 b.) ni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, marganets sulfidning Fermi energiyasi atrofida kichik energik bo'shliq (*band gap*) hosil bo'lib bu esa o'z navbatida namunada yarimo'tkazgichlik tabiatining mavjudligidan dalolat bermoqda. DFT+U usulidagi Hubbard (U) modeli Mn atomlarining 3d-qobig'ida joylashgan elektronlarning o'troqlashish darajasini oshiradi natijada taqiqlangan zona kengligi hosil bo'ladi. DFT natijalariga ko'ra Mn1 va Mn2 atomlari individual holatlari uchun *spin-up* (spini yuqoriga yo'nalgan holat) va *spin-down* (spini pastga yo'nalgan holat) komponentlari assimetrik bo'lib (rasm-1 a), bu esa o'z navbatida marganets atomida magnit moment mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek Mn1 atomining *spin-up* magnit mometiga miqdor jihatdan teng ammo yo'nalishi bo'yicha esa qarama-qarshi bo'lgan Mn2 atomining magnit mometlari bir birini to'la kompensatsiya qilib antiferromagnit tartiblanishni hosil qilmoqda. DFT+U natijalari biroz farqli bo'lib *spin-up* va *spin-down* komponentlari orasidagi farq ortib Mn atomlarining magnit momentini qisman oshishiga olib keldi. 1-jadvalda alabandit (α -MnS) mineralining DFT va DFT+U hisoblash natijalariga ko'ra magnit xossalari va elektron zaryadi qiymatlari keltilgan. Elektronlarning zaryad (*Charge*) taqsimoti Mn atomlari uchun DFT da 13.1625 e ga teng. DFT+U hisoblash natijalarida esa bu qiymat 13.1100-13.1101 e gacha kamayadi. Bu shundan dalolat beradiki, DFT+U usuli Mn atomlarining 3d-qobiqlaridagi elektronlarni kuchliroq lokallashtirib, elektronlarni yanada aniqroq taqsimlanishiga olib keladi. Marganets atomlari uchun magnit moment DFT usulida $\pm 4.1117 - 4.1118 \mu_B$ va DFT+U usulida esa $\pm 4.4320 - 4.4321 \mu_B$ qiymatlarga ega. Oltingugurt atomlari juda kichik magnit momentga ega (DFT: ± 0.0587 , DFT+U: $\pm 0.0389 \mu_B$). Bu o'z navbatida oltingugurt atomlarining magnitlanish jarayonida deyarli ishtirok etmasligini ko'rsatadi.

1-jadval

Atom	Zaryad (e)		DFT		DFT+U	
	DFT	DFT+U	Atom birligiga to'g'ri keluvchi magnit moment (μ_B)	Umumiy magnitlanish Bohr mag/cell	Atom birligiga to'g'ri keluvchi magnit moment (μ_B)	Umumiy magnitlanish Bohr mag/cell
Mn1	13.1624	13.1097	4.1117	0.00	4.4320	0.00
Mn1	13.1625	13.1101	4.1118		4.4321	
Mn2	13.1625	13.1100	-4.1118		-4.4321	
Mn2	13.1625	13.1100	-4.1118		-4.4321	
S	4.5858	4.6476	-0.0587		-0.0389	
S	4.5858	4.6476	-0.0587		-0.0389	
S	4.5858	4.6476	0.0588		0.0389	
S	4.5858	4.6476	0.0587		0.0389	


Zona strukturasi (Band structure). Alabandit mineralining magnit va electron tabiatini tushunish uchun elektron strukturasi hisoblab chiqildi. 2-rasmda DFT natijalarining "*spin up*" va "*spin down*" holatlari alohida tasvirlangan. Har ikkala

holatida Fermi energiya sathi bilan kesishmoqda. Bundan α -MnS metall tabiatga ega ekanligi kelib chiqadi ammo tadqiqodlar uni yarim o'tkazgich ekanligini tasdiqlaydi [17]. DFT odatiy holatda Mn 3d- elektronlarining kuchli korelyasiyasini yetarli darajada hisobga olmaganligi sababli o'lchash aniqligi juda kichik bo'lib chiqdi.

DFT+U hisoblashda zona tuzilishi o'zgarishga uchrab zonalar oralig'i oshib taqiqlangan zona vujudga keladi (2-rasm). Hubbard U parametrining kiritilishi (DFT+U) Mn 3d-qobiq elektrtonlari uchun elektron-lokallashish darajasini oshirib E_g hosil bo'lishining asosiy sabablardan biri sifatida keltrish mumkin. DFT+U natijasi DFT ga nisbatan α -MnS ning yarim o'tkazgich va magnit xossalarini aniqroq aks ettirishi ma'lum bo'ldi.

Jadval 2.


Hisoblash usuli	E_g (eV)		Magnit turi	Material turi
DFT	0 eV		antiferromagnit	metall
DFT+U	U = 4 eV	~0.62 eV	antiferromagnit	yarim o'tkazgich
	U = 5 eV	~0.65 eV		
	U = 6 eV	~0.67 eV		
DFT (Monolayer MnS)	0 eV [17]		antiferromagnit	Metall
DFT+U (Monolayer MnS)	0.68 eV [17]		antiferromagnit	yarim o'tkazgich



2-rasm. Alabanditning energitik zona strukturasini (DFT), (DFT+U).

2-jadvalga ko'ra DFT+U hisoblashlarida kubik α -MnS (B1) uchun $E_g = 0.67$ eV qiymati olindi, agar bu qiymatni bir qatlamli MnS minerali uchun DFT+U usuli yordamida olgan qiymatiga solishtiradigan bo'lsak Y.Z.Abdullahining tadqiqod ishida $E_g = 0.68$ eV [17] ga tengligi bizning tadqiqod ishimizning ishonchligini tasdiqlaydi.

ELF tahlil. DFT+U usulida hisoblangan ELF xarita marganets va oltingugurt atomlari o'rtasida elektronlar seyrak joylashganligini kurish mumkin Bu esa atomlar o'rtasida ion bog'lanish xarakterini namoyon qiladi 3-rasm.



3-rasm. Alabandit (α -MnS) mineralining ELF xaritasi (DFT+U).

Xulosa.

Alabandit mineralining elektron va strukturaviy xossalarini zichlik funksional nazariyasi DFT va DFT+U yondashuvlari asosida tadqiq qilish orqali muhim ilmiy natijalarga olindi. Ikkala holatda ham alabandit mineralining magnit tabiati bir xil antiferromagnit ko'rsatdi, atom magnit momenti esa bir biriga yaqin ammo uning elektron o'tkazuvchanlik tabiatini aniqlashda bir biridan keskin farq qilishi ma'lum bo'ldi. DFT natijalari o'rganilgan namuna uchun $E_g=0$ eV bo'lib, metall tabiatga ega ekanligini ko'rsatdi. DFT+U esa $E_g=0.62-0.67$ eV qiymatga egaligini kursatib yarimo'tkazgich xususiyatlarini namoyon qildi. Demak α -MnS strukturasini uchun DFT+U usulining DFT ga nisbatan aniqligi yuqoriligi namoyon bo'ldi.

α -MnS ning ELF (Electron Localization Function) xaritalariga ko'ra Mn va S atomlari orasida ion bog'lanish dominantlik qilishi anqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Г.А. Петраковский, Л.И. Рябинкина, Г.М. Абрамова, Н.И. Киселев, Д.А. Великанов, А.Ф. Бовина. Письма в ЖЭТФ 69, 12, 949 (1999).
2. И.С. Эдельман, О.Б. Романова, Л.И. Рябинкина, Г.М. Абрамова, В.В. Марков. Анизотропия оптического поглощения α -MnS, Физика твердого тела, 2001, том 43, вып. 8
3. Ferretti, A. M., Mondini, S., & Ponti, A. (2016). Manganese sulfide (MNS) nanocrystals: Synthesis, properties, and Applications. In IntechOpen eBooks. <https://doi.org/10.5772/65092>
4. Ferretti, A. M.; Mondini, S.; Ponti, A. Manganese Sulfide (MnS) Nanocrystals: Synthesis, Properties, and Applications. Advances in Colloid Science; Elsevier, 2017; pp 121–123.
5. Alanazi, A. M., McNaughton, P. D., Alam, F., Vitorica-Yrezabal, I. J., Whitehead, G. F. S., Tuna, F., O'Brien, P., Collison, D., & Lewis, D. J. (2021). Structural Investigations of α -MnS Nanocrystals and Thin Films Synthesized from Manganese(II) Xanthates by Hot Injection, Solvent-Less Thermolysis, and Doctor Blade Routes. ACS Omega, 6(42), 27716–27725. <https://doi.org/10.1021/acsomega.1c02907>
6. Yang, X.; Wang, Y.; Wang, K.; Sui, Y.; Zhang, M.; Li, B.; Ma, Y.; Liu, B.; Zou, G.; Zou, B. Polymorphism and Formation Mechanism of Nanobipods in Manganese Sulfide Nanocrystals Induced by Temperature or Pressure. J. Phys. Chem. C 2012, 116, 3292–3297.
7. Yang, X.; Wang, Y.; Sui, Y.; Huang, X.; Cui, T.; Wang, C.; Liu, B.; Zou, G.; Zou, B. Size-Controlled Synthesis of Bifunctional Magnetic and Ultraviolet Optical Rock-Salt MnS Nanocube Superlattices. Langmuir 2012, 28, 17811–17816.

8. Kavcı, O., & Cabuk, S. (2014). First-principles study of structural stability, elastic and dynamical properties of MnS. *Computational Materials Science*, 95, 99–105. <https://doi.org/10.1016/j.commatsci.2014.07.022>
9. L.I. Ryabinkina, G.V. Loseva. *Phys. Stat. Sol. (a)* 80, k179 (1983).
10. Gilbert, T. L. (1975). Generalized Kohn-Sham system in one-matrix functional theory. *Physical Review B*, 12(12), 2111–2113.
11. Brockherde, F., Vogt, L., Li, L., Tuckerman, M. E., Burke, K., & Müller, K. -R. (2017). By-passing the Kohn-Sham equations with machine learning. *Journal of Chemical Physics*, 146(16), 164105.
12. Jain A., Ong S.P., Hautier G. et al. The Materials Project: A materials genome approach to accelerating materials innovation // *APL Materials*. – 2013. – Vol. 1. – P. 011002. DOI: [10.1063/1.4812323], <https://doi.org/10.1063/1.4812323>
13. Materials Project Database. MnS (mp-2065, Fm3m). URL:(<https://legacy.materialsproject.org/materials/mp-2065>) (access date: 20.02.2025).
14. Giannozzi, P., et al. (2017). Advanced capabilities for materials modelling with Quantum ESPRESSO. *Journal of Physics Condensed Matter*, 29(46), 465901. <https://doi.org/10.1088/1361-648x/aa8f79>
15. C. P. Grimes, F. J. Himpsel, and G. M. S. Kuo, "Electron localization function (ELF) and its role in understanding chemical bonding in transition metal compounds," *J. Chem. Phys.*, vol. 120, no. 14, pp. 6521-6529, Apr. 2004, <https://doi.org/10.1063/1.1704304>.
16. K. Momma and F. Izumi, "VESTA 3 for three-dimensional visualization of crystal, volumetric and morphology data," *J. Appl. Crystallogr.*, 44, 1272-1276 (2011).
17. Abdullahi, Y. Z. (2024). Role of inter-site hubbard interactions in MnS Monolayer: DFT+U+V investigation. *GAZI UNIVERSITY JOURNAL OF SCIENCE*, 37(3), 1552–1559. <https://doi.org/10.35378/gujs.1307490>



UDK: 530.12:531.51

Sojida MANNOBOVA,
Student at National University of Uzbekistan
E-mail: sojidamannabova2208@gmail.com
Gulzoda RAKHIMOVA,
Tashkent State Technical University
Nozima JURAEVA,
National Research University TIAME

Based on the review of professor A.Abdujabbarov, Ulugh Beg Astronomical Institute

A GENERIC STUDY OF THIN-SHELL VIA REGULAR CHARGED BLACK HOLE

Annotation

